

## O‘ZBEK AYOLLAR NUTQIDA PRAGMATIK TO‘SIQNI YUZAGA CHIQUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

**Mirobidova Nilufar Murodjon qizi**

Tashkent. Uzbekistan

O‘zMU Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

[nilufarmirobidova19@gmail.com](mailto:nilufarmirobidova19@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Antroposentrik paradigmaning ajralmas qismi bo‘lgan lingvistik pragmatika muammolarini tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Pragmalingvistika tarkibida o‘rganiluvchi pragmatik to‘siq hodisasi jahon tilshunosligida bir qancha olimlar o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida aynan maxsus ish yo‘q bo‘lsa ham, ushbu hodisaning bir qancha asos va sabablari tushuntirib berilgan. Maqolada pragmatik to‘siq bilan birga, uning yuzaga chiqishida ta‘sir ko‘rsatadigan ekstralingvistik omillardan biri bo‘lgan psixologik omil haqida so‘z boradi. Maqolada muallif inson ruhiy holati, uning nutqida to‘siq hosil bo‘lishiga ta‘sirini birma-bir izohlab bergan.

**Kalit so‘zlar:** pragmalingvistika, pragmatik to‘siq, lingvistik omil, ekstralingvistik omil.

### ANNOTATION

The study of the problems of linguistic pragmatism, which is an integral part of the anthropocentric paradigm, is one of the most pressing issues today. The phenomenon of pragmatic barriers in pragmatic linguistics has been studied by a number of scholars in world linguistics. Although there is no specific work in Uzbek linguistics, a number of grounds and reasons for this phenomenon are explained. In addition to the pragmatic barrier, the article discusses the psychological factor, which

is one of the extralinguistic factors influencing its emergence. The author of the article explains one by one that the state of mind of a person causes a barrier in his speech.

### АННОТАЦИЯ

Изучение проблем языкового прагматизма, являющегося составной частью антропоцентрической парадигмы, является на сегодняшний день одним из наиболее актуальных вопросов. Феномен прагматических помех в прагматической лингвистике изучался рядом ученых мирового языкознания. Хотя конкретных работ по узбекскому языкознанию нет, разъясняется ряд оснований и причин этого явления. Помимо прагматического помех, в статье рассматривается психологический фактор, который является одним из экстралингвистических факторов, влияющих на его возникновение. Автор статьи последовательно объясняет, что душевное состояние человека вызывает помех в его речи.

Ilm-fan taraqqiyoti natijasida dunyoda ko‘plab o‘zgarishlar yuz bermoqda. Tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas, albatta. Deyarli 1 asr davomida amalda bo‘lgan sistem-struktur tilshunoslik o‘rnini, hozirga kelib, antroposentrik tilshunoslik egalladi. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda til tizimini o‘rganishga antroposentrik paradigma asosida yondashuv tendensiyasi yetakchilik qilmoqda. O‘tgan asr oxirlarida antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida maydonga kelgan pragmalingvistikada til birliklarining nutq vaziyati, kontekst, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari, tilga oid ko‘nikma va malakalari kabi qator omillar bilan bog‘liq holda reallashadigan imkoniyatlarini o‘rganishga e‘tibor qaratila boshlandi. Barcha tadqiqotlar, ilmiy ishlar aynan shu paradigmalingvistika tarkibida olib borilmoqda. Lingvistik pragmatikaning o‘rganish obyektiga juda keng bo‘lib u nutqiy akt, konnotatsiya, nutqning presuppozitsion xususiyatlari, pragmatik to‘siq, deysksis, diskurs kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Lingvistik pragmatikaning bir sohasi bo‘lgan pragmatik to‘siq bo‘yicha jahon tilshunosligida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Pragmalingvistikada pragmatik to‘siq muammosi R.R.Gelgard, L.A.Kiseleva, I.V.Chernigova, Yu.V.Sadovskaya va boshqa tadqiqotchilar tomonidan maxsus o‘rganilgan. Pragmatik to‘siqni tadqiq qilgan T. G. Paymurzina unga muloqot jarayonida sodir bo‘ladigan to‘siq sifatida qaraydi. Mazkur mavzu doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda samarasiz muloqot tushunchasini ifodalash maqsadida kommunikativ xato hamda kommunikativ muvaffaqiyatsizlik terminlari qo‘llaniladi. So‘zlovchining muloqotdan ko‘zlangan maqsadga erishuvi va suhbatdoshlarning o‘zaro kelishib olishi muvaffaqiyatli dialog hisoblansa, nutqiy (kommunikativ) muvaffaqiyatsizlik deganda muloqotning salbiy oqibati, gapirayotgan odamning o‘z maqsadiga erisha olmasligi, muloqot jarayonida vujudga kelgan rejalashtirilmagan negativ emotsional effekt, konfrontatsiya (qarama-qarshilik, o‘zaro ixtilofda bo‘lish, to‘qnashuv)ga sabab bo‘luvchi muomala strategiyasi nazarda tutiladi. Kommunikativ xato nuqsonli muomala, kommunikativ noaniqlik demakdir. [3, 15]

L.A.Kiseleva esa pragmatik to‘siqning yuzaga kelishiga quyidagi omillarning ta‘sir etishini ko‘rsatadi:

1. Rejalashtirilgan pragmatik effekt belgilari.
2. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar.
3. Tezaurus (intellekt imkoniyati) fondi va xarakteri.
4. Lingvistik material xususiyati. [4, 135-136]

Pragmatik to‘siq tushunchasi, asosan, so‘zlovchi hamda tinglovchi o‘rtasidagi kommunikativ munosabatda aniq ko‘rinadi, ayniqsa, nutq ishtirokchilari tasavvurida olam hamda til bilimlarining darajalanishi pragmatik to‘siqning asosi deb qaraladi.

Pragmatik to‘siqlar ham implikativ mazmun ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u faqat tinglovchi uchun malum bo‘lishi bilan ajralib turadi, Matn mazmunining anglanishida paydo bo‘luvchi pragmatik to‘siqni tagma‘nodan farqlash lozim bo‘ladi.[1, 87]

Matnning tagma‘nosi oshkora va yashirin axborotning mantiqiy tahlili yordamida aniqlansa, pragmatik to‘siq na propozitsiya mazmuni, na presuppozitsiya mazmuni va

na tagama’no yordamida aniqlanadi, pragmatik to’siq mazmuni uslubiy vosita sifatida so‘zlovchi shaxsi fikrlashi hamda talaffuz imkoniyatlari vositasida aniqlanadi.

Pragmatik to’siq so‘zlovchining nutqiy axloqiy ko‘rinishlaridan biri, sifatida uning ichki ma’naviy olami xususidagi ma’lumotdir. Shuning uchun ham nutq so‘zlovchining ma’naviy qiyofasini o‘zida mujassamlashtiradi. Bunday qarash oxirgi paytlarda nashr qilingan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda ham uchraydi. Jumladan: «Jumla kishilar o‘rtasidagi aloqa jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun ham ularning har birida shaxsning izi o‘z ifodasini topadi. Chunki “til - borliqning uyi, unda insoniyatning ma’naviy, ruhiy olami aks etadi.” O‘zbek tilshunos olimlari pragmatik to’siqni aniqlashda, asosan, tinglovchi pozitsiyasini hisobga olishadi. So‘zlovchi nuqtayi nazari pragmatik to’siqda e’tiborga olinmaydi. [2, 140] Ammo bu hodisa shaxsning o‘z individual xususiyatlaridan, kognitiv qobiliyatlaridan, qolaversa, psixik holatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ayollar nutqida, ayniqsa bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ular suhbatdoshidan qo‘rqish, mavqe jihatdan pastlik, obro‘ jihatdan yetuk bo‘lmaganligi, hurmat kabi faktorlar natijasiga o‘z fikrlarini mustaqil, aniq bayon qilib bera olmaydilar. Bu bevosita o‘zlariga ya’ni so‘zlovchiga nisbatan voqelangan pragmatik to’siqni yuzaga keltiradi. Quyidagi asardan parcha bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

Enaxon kelina qaradi. Keling Enaxonning bu qarashidan “Qani, gapiring, nima deysiz?” deganini anglagan bo‘lsa-da, qaynana oldida birinchi bo‘lib gap ochishni ep ko‘rmasdan, jim qoldi. Shundan keyin Enaxon bir nima demakka majbur bo‘ldi. [10, 42]

Parchadan ko‘rinib turibdiki, ayol o‘z suhbatdoshiga aytadigan gaplari juda ko‘p. amma suhbatdoshi qaynonasi ekanligi uni to‘xtashga, ya’ni fikrini ochiq bayon etishiga to‘sqinlik qiladi. Xalqimizda azaldan qaynona- qaynotaga hurmat, ular oldida ortiqcha gapirmaslik, odob saqlash, hatto, zaruriy gaplarni ham o‘rtaga odam qo‘yib aytishga odatlanilgan. Bu o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan mental xususiyatlardan biridir. Ushbu parchada ham buni kuzatishimiz mumkin. Bu so‘zlovchi pozitsiyasidan bo‘lgan pragmatik to’siqdir.

- Tolqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo‘lak lavlagini puflab-puflab yer ekan. Qo‘rquv ichida oyimga qaradim.
- Qiluvdim, - dedi u sekin.
- Qolmadimi?
- Og‘ir o‘lgur ag`darilib ketdi, - dedi onam aybdor ohangda.
- Nima? – dadam lavlagi bo‘lagini qo‘lida tutgancha jaxl bilan onamga qaradi.
- To‘kilib ketdi, - dedi oyim boshini quyi solib.
- Padaringga la`nat. [11, 89]

Asardan olingan ushbu parchada ayol kishini nutqida pragmatik to‘siq yuzaga chiqishini ko‘rishimiz mumkin. Turmush o‘rtog‘i qarshisida fikrini bayon qilishida unga, psixik holat bo‘lgan, qo‘rquv halal beradi. Ayolning talmovsirab gapirishi ham, o‘z navbatida, erkakda pragmatik to‘siq yuzaga chiqishida sabab bo‘ladi. Ayoldagi holatdan turmush o‘rtog‘i uning fikrini, nima demoqchi ekanligi aniq anglay olmaydi.

Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi:

- Habiba buvi shamollab qopti. Ko‘miri yo‘q ekan, oborib berdim.

Dadam oyimni urushmadi.

- Chatoq bo‘pti, - dedi sekin. –Achinskaga xabar berish kerak.

Onam bosh chayqadi.

- Judayam zarilmas, shekilli. Mana, uyi isib qoldi. Ajabmas erta-indin tuzalib ketsa. [11, 89]

Yuqoridagi parchalarning barchasida ayollar nutqi pragmatik to‘siqga uchraydi. Ulardagi qo‘rquv, hurmat, achinish, bo‘yin egish kabi xususiyatlar nutqda o‘z aksini topadi.

Kuzatuvlarga ko‘ra, fikrning ifodalanishi jarayonida ekstralingvistik omillar ta‘sirida paydo bo‘ladigan pragmatik to‘siq ayollar nutqida aniq ko‘zga tashlanadi. Ayollarda lug‘at zaxirasi yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa ham, undan foydalanish

imkoniyati kamayadi. Bu xususiyatni o‘zida aks ettiruvchi ifoda vositalari so‘zlashuv nutqida ko‘p uchraydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ayollar nutqida pragmatik to‘siq hosil bo‘lishida ko‘plab faktorlar sabab bo‘ladi. Bular quyidagilardir:

- 1) So‘zlarning orfoepik me‘yorga zid holda talaffuz etilishi;
- 2) So‘zlarning noo‘rin qo‘llanishi;
- 3) Ayollar o‘z nutqida hosil qilingan individual okkazionalizmlar;
- 4) Nutq obyekti haqida bilimga ega bo‘lmaslik va uni noto‘g‘ri talqin etishi;
- 5) Adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, ularning hududiy xoslanishi
- 6) Ayollar pixikasida sodir bo‘ladigan turli o‘zgarishlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)**

1. Hakimov M. (2013). O‘zbek pragmalingsistikasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 89-94.
2. Sayfullayeva R va boshqalar. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Fan va texnologiya”.
3. Паймурзина Т. Г. Коммуникативные промахи и неудачи в детской речи: к проблеме изучения и предупреждения в системе среднего коммуникативного образования // Известия РГПУ им. А.И. Герцена 2009 №112 URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/kommunikativnye-promahi-i-neudachi-v-detskoj-rechi-k-probleme-izucheniya-i-preduprezhdeniya-v-sisteme-srednego-kommunikativnogo>.
4. Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. (1978). Л. 135-136.
5. Лингвистический энциклопедический словарь // <http://tapemark.narod.ru/les/412c.html>.
6. Xudoyberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini(2015). Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent. 25.

7. Lutfullayeva D., Jumayev F. (2015) O‘zbek tili fe’llarining pragmatik xususiyatlari. Toshkent, O‘zbek tili va adabiyoti.
8. Madrahimov I. So‘z serqirraligi va uni tasniflash asoslari. – Farg‘ona, 2005.
9. Гелгард Р.Р. Помехи в понимании речевых сообщений. (1968) Русский язык в школе. М. 1968.
10. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va Kunduz. Adabiyot uchqunlari, Toshkent, 2018-yil.
11. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. “Sharq” nashriyot-matbaa. Toshkent, 2018-yil, 89-bet)